
SAYYOR QABULLARDA MUROJAATLAR YECHIM TOPMOQDA

Oltiariq tumani hokimi Sh.Turdaliyev tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oltiariq tumanidagi Xalq qabulxonasida navbatdagi sayyor qabul o'tkazildi.



Unda tuman hokimi o'rinbosarlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oltiariq tumanidagi Xalq qabulxonasi mudiri va tegishli tashkilot rahbarlari ishtirok etdi.



Mazkur qabulda 30 nafardan ortiq fuqarolarning murojaatlari ko'rib chiqildi. Qabul davomida tadbirkorlik, uy-joy, moddiy yordam, subsidiya, bandlik, sog'liqni saqlash, bola nafaqasi, gaz, elektr va boshqa turli masalalar bo'yicha murojaatlar ro'yhatga olinib, 4 ta murojaat joyida ijobiy hal etildi, o'nlab murojaat egasiga huquqiy tushuntirish berildi.

Qolgan murojaatlarni o'z muddatlarida ijrosini ta'minlash bo'yicha tegishli tashkilot va muassasa rahbarlariga topshiriqlar berildi va ijrosi nazoratga olindi.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#)

2022-07-14 18:15:04